



**TA'LIMDAGI ISLOHOTLAR VA
SOHAGA
DOIR ME'YORIY-HUQUQIY
HUJJATLAR
MODULI BO'YICHA
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

SAMDU_MM



2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

“TASDIQLAYMAN”
Mintaqaviy markaz direktori
A.I.Babayarov
“ _____ ” _____ 2026 yil

**“TA‘LIMDAGI ISLOHOTLAR VA SOHAGA
DOIR ME‘YORIY-HUQUQIY HUIJATLAR”**

**MODULI BO‘YICHA
O‘QUV-USLUBIY MAJMUA**

**Malaka toifa
yo‘nalishi:**

Akademik litsey o‘qituvchilari

Tinglovchilar kontingenti:

**Akademik litseylarda ta‘lim beruvchi
barcha fan o‘qituvchilari**

Samarqand-2026 yil

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
202__-yil ___-dekabrdagi ____-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim
muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari
o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: yu.f.d., dotsent Z.Quvondiqov

Taqrizchi: yu.f.n, dotsent J.Ibodullayev

*O'quv-uslubiy majmua Ishchi o'quv dastur Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti Kengashida tavsiya qilingan (202__ yil " ____ "*
_____ -sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

| | | |
|-------------|----------------------------------------------------------------------------------|------------|
| I. | ISHCHI DASTUR..... | 5 |
| II. | MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL O‘QITISH METODLARI..... | 15 |
| III. | NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI..... | 30 |
| IV. | AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI..... | 80 |
| V. | ADABIYOTLAR RO‘YXATI..... | 171 |
| VI. | NAZORAT SAVOLLARI..... | 173 |

ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik liseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilish va amaliyotga tatbiq etish, ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, fizika va astronomiya ta’limida zamonaviy metodikalarni amaliyotga tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining maqsadi pedagog xodimlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;

pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o‘qitish sifati va samaradorligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;

o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish hamda ulardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;

o‘quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

“Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo‘nalishlarda bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- o‘rta maxsus ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan so‘nggi islohotlarni;
- pedagog xodimlardan talab qilinadigan o‘quv-me’yoriy hujjatlarni;
- BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi va O‘zbekiston tajribasini;
- bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasi va turlarini;
- inklyuziv ta’limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlarini;
- inklyuziv ta’lim konsepsiyasi, modellari va strategiyalarini;
- turfa xil ta’lim oluvchilarni qo‘llab-quvvatlashni shakl, metod va vositalarini;
- ta’limdagi sun’iy intellektning xususiyatlarini;
- ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini;
- ChatGPT, Copilot, Khanmigo kabi SI vositalarini;
- raqamli ta’lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams va boshqalar)ni;
- raqamli vositalardan foydalanish etikasini;
- kiberxavfsizlik asoslarini;
- raqamli etiket va akademik halollikni;
- plagiat, kontrafakt, akademik firibgarlik tushunchalarini;
- sun’iy intellektdan halol foydalanish me’yorlarini;
- oliy ta’limga kirish testlarining talablariga mos mashqlarni;
- o‘zgaruvchilarni almashtirish natijasida trigonometrik funksiyalarga keltirib yechiladigan masalalarni;
- skalyar ko‘paytmaning nostandart masalalar yechishda yuqori darajali fikrlash (Bloom: Analyze–Evaluate–Create) texnologiyasidan foydalanishni;
- real hayotiy modellarni;
- mantiqiy topshiriqlar va olimpiada elementlari orqali tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish metodlarini;
- samaradorligi yuqori, lekin kam uchraydigan kombinatsion usullardan foydalanishga keltiriladigan tenglama va tengsizliklarni *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- pedagog xodimlarga beriladigan malaka toifasi hamda ustamalar berish tartiblarini o'zlashtirish va amaliyotga tadbqiq etish;
- bolalar huquqini himoya qilish, o'quvchilar xavfsizligini ta'minlash;
- korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantiruvchi mashg'ulotlarni o'tish;
- inklyuziv ta'limning nazariy asoslari, modellar va huquqiy kafolatlaridan samarali foydalanish;
- inklyuziv ta'limda pedagogning rolini kuchaytiruvchi yo'llarni aniqlash;
- pedagogik jarayonda sun'iy intellektdan samarali foydalanish;
- ChatGPT, Copilot, Khanmigo kabi SI vositalari orqali o'qitish;
- o'quvchilarning mustaqil o'rganish jarayonida SIni qo'llash;
- raqamli ma'lumotlar bilan ishlash madaniyatini shakllantirish;
- o'quvchilarni internetda mas'uliyatli foydalanishga o'rgatish;
- shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash tamoyillaridan foydalanish;
- raqamli muhitdagi muloqot madaniyatini shakllantirish.;
- onlayn ta'lim jarayonida etik me'yorlarga rioya qilishni o'rgatish;
- sun'iy intellektdan halol foydalanish meyorlariga rioya etish;
- nostandart masalalarni yuqori samaradorlikka ega belgilashlar orqali yechish;
- vektorlarni skalyar ko'paytmasi va uning xossalarini o'qitishda STEM, STEAM, PBL (Project-based learning) texnologiyalarini qo'llash;
- yektorlar ustida chiziqli amallar va ulardan foydalanib ba'zi tenglama va tengsizliklarni yechish;
- matematik masalalar yechishda funksional o'rniga qo'yish metodikasida o'quvchi markazidagi ta'lim (Learner-centered learning) texnologiyasini qo'llay olish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash;
- ta'lim tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va tarbiyaviy muhitni mustahkamlash;
- zo'ravonlikni aniqlash, psixologik yordam ko'rsatish, profilaktik suhbatlar o'tkazish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish;
- inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlarini o'zlashtirish va amalda qo'llash;
- raqamli vositalardan o'qitish jarayonida samarali foydalanish;
- SI yordamida dars rejalari, testlar va tahliliy hisobotlarni yaratish;
- raqamli ta'lim platformalari (Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams va boshqalar)dan samarali foydalanish;
- raqamli vositalardan foydalanish etikasiga rioya etish;
- akademik halollik tamoyillarini o'rgatish va uning buzilish shakllarini aniqlash;

- sun'iy intellekt texnologiyalaridan mas'uliyatli, axloqiy va halol foydalanish;
- hamjihatlik, o'zaro hurmat va tolerantlikni kuchaytirish;
- reyting tizimi va kompetensiya asosida baholash;
- irratsional tenglamalar va tengsizliklar yechishda test va muammoli topshiriqlarni loyihalash;
- diagnostik, formatif va summativ baholash asoslaridan foydalanish;
- murakkab tenglama va tengsizliklar yechishda nostandart usullardan foydalanish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

**“Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar” moduli
bo’yicha soatlar taqsimoti**

| | Modul mavzulari | Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat | | | |
|--------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------|-------------------------------------|----------|----------|
| | | Hammasi | Auditoriya o'quv yuklamasi jumladan | | |
| | | | Jami | Nazariy | Amaliy |
| | | | | | |
| 1 | O'rta maxsus ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan so'nggi islohotlar | 2 | 2 | 2 | |
| 2 | Ta'lim tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va tarbiyaviy muhitni mustahkamlash | 2 | 2 | 2 | |
| 3 | Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlari | 2 | 2 | | 2 |
| Jami: | | 6 | 6 | 4 | 2 |

NAZARIY VA AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: O'rta maxsus ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan so'nggi islohotlar. (2 SOAT)

O'rta maxsus ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan so'nggi islohotlar. Xalqaro tajribalar. Pedagog xodimlarga malaka toifasi hamda ustamalar berish tartiblari. Pedagog xodimlardan talab qilinadigan o'quv-me'yoriy hujjatlar.

2-MAVZU: Ta'lim tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va tarbiyaviy muhitni mustahkamlash. (2 SOAT)

Ta'lim tashkilotlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va tarbiyaviy muhitni mustahkamlash. BMTning “Bola huquqlari to'g'risida”gi Konvensiyasi va O'zbekiston tajribasi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik tushunchasi va turlari. Zo'ravonlikni aniqlash, psixologik yordam ko'rsatish, profilaktik suhbatlar. Bolalar

huquqini himoya qilish, o'quvchilar xavfsizligini ta'minlash. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish.

3-MAVZU: Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlari. (2 SOAT)

Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari va huquqiy kafolatlari. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi, modellari va strategiyalari. Turfa xil ta'lim oluvchilarni qo'llab-quvvatlashni shakli, metodi va vositalari. Inklyuziv ta'limda pedagogning rolini kuchaytirish yo'llari.

“Ta'limdagi islohotlar va sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta'limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- video ma'ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalar;
- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalar, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“**Aqliy hujum**” **metodi** - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli

gʻoyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod taʼlim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi taʼlim beruvchi tomonidan qoʻyilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Taʼlim oluvchilarning boshlangʻich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qoʻyilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.


2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bogʻlash maqsad qilib qoʻyilganda -yangi mavzuga oʻtish qismida amalga oshiriladi.

3. Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qoʻyilganda-mavzudan soʻng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qoʻllashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-gʻoyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-gʻoyalar, ular hatto toʻgʻri boʻlmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir taʼlim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:


- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim

beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida "Kichik guruhlarda ishlash" metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta‘lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta‘lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:


- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta‘lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba‘zi kichik guruhlarda kuchsiz ta‘lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta‘lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta‘lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Davra suhbatı” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.


“Davra suhbatı” metodu qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta‘lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta‘lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta‘lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta‘lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta‘lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta‘lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta‘lim oluvchiga konvert qog‘ozi beriladi. Har bir ta‘lim oluvchi konvert ustiga ma‘lum bir mavzu bo‘yicha o‘z savolini beradi va “Javob varaqasi”ning biriga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi. Shundan so‘ng konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta‘lim oluvchi o‘z javobini “Javoblar varaqasi”ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi va yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo‘ylab harakatlanadi. Yakuniy

qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida “Davra suhbatlari” metodining tuzilmasi keltirilgan



“Davra suhbatlari” metodining tuzilmasi

“Davra suhbatlari” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. Ta'lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o'z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni ob'ektiv baholashi mumkin.

"Davra suhbatı" metodining afzalliklari:

- o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

"Davra suhbatı" metodining kamchiliklari:


- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

"Rolli o'yin" metodi-ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha o'yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o'yin ssenariysini ishlab chiqadi.

2. O'yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.

3. O'yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.

4. Ta'lim oluvchilar o'z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta'lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O'yin yakunida ta'lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo'lgan ta'lim oluvchilar o'z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o'yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo'llash uchun ssenariy ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba'zi hollarda ta'lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta'lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo'yicha o'tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba'zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta'lim oluvchilar ushbu rolli o'yin ko'rinishidan so'ng o'z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o'yin” metodining afzallik tomonlari:

- o'quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi;
- ta'lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o'yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko'p vaqt talab etiladi;
- ta'lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta'lim oluvchilarning o'yinga tayyorgarligi turlicha bo'lishi mumkin;
- barcha ta'lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta’lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o‘rganadilar;
- ta’lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:


- ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo‘yilgan muammo ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;

- ko‘p vaqt talab etiladi.

“Loyiha” metodi-bu ta‘lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta‘lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta‘lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta‘lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta‘lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta‘lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Professor-o‘qituvchi loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta’lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Ta’lim oluvchilar professor-o‘qituvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Professor-o‘qituvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta’lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta’lim oluvchilar ish natijalarini o‘zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta’lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og‘zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko‘rinishidagi yozma hisobot.

6. Professor-o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O‘quv amaliyoti mashg‘ulotlarida erishilgan ko‘rsatkichlarni me’yoriy ko‘rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me’yoriy ko‘rsatkichlarga erisha olinmagan bo‘lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Professor-o‘qituvchi “Loyiha” metodini qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta’lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta’minlanishi lozim.

“Loyiha” metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhiy ish;
- jamoa ishi.

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MA‘RUZA. O‘RTA MAXSUS TA‘LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN SO‘NGGI ISLOHOTLAR.

1. Tizimli boshqaruv va me‘yoriy-huquqiy asoslar
2. Ta‘lim mazmuni va metodikasini modernizatsiya qilish
3. Kadrlar salohiyati va moddiy-texnik baza

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida o‘rta maxsus ta‘lim tizimi muhim o‘rin tutadi va bu sohadagi islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar nafaqat ta‘lim mazmuni va metodikasini yangilashga, balki butun tizimning boshqaruv tamoyillari, moliyalashtirish mexanizmlari, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi zamonaviy mehnat bozoriga mos keladigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta‘lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish va mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishdan iborat.

Islohotlarning nazariy-metodologik asoslari jahon tajribasining eng yaxshi namunalari, xalqaro ta‘lim standartlari va milliy xususiyatlar uyg‘unligi printsipiga qurilgan. Bu jarayonda kompetensiyaviy yondashuv, amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim, dual ta‘lim elementlari, raqamlashtirish va innovatsion pedagogik texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Islohotlar doirasida ta‘limning barcha bosqichlarida izchillik ta‘minlanmoqda va o‘rta maxsus ta‘limning oliy ta‘lim hamda mehnat bozori bilan uzviy bog‘lanishi mustahkamlanmoqda.

Ta‘lim tizimini boshqarishdagi o‘zgarishlar markazlashgan va hududiy boshqaruv tamoyillari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlashga qaratilgan. Yangi boshqaruv modeli ta‘lim muassasalarining akademik va moddiy-texnik mustaqilligini kengaytirish bilan birga, natijalar uchun javobgarlikni kuchaytiradi. Hududiy boshqaruv organlari mahalliy iqtisodiyot ehtiyojlarini ta‘lim dasturlariga aks ettirishda ko‘proq vakolatlarga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, milliy standartlar va sifat kafolatlari barcha hududlarda bir xil darajada ta‘minlanishi nazorat qilinmoqda.

Me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashtirilishi islohotlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi qonun va qonun osti hujjatlar zamonaviy talablar asosida qayta ishlanmoqda. Yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ta'lim muassasalarining faoliyat yuritish tartibini soddalashtiradi, byurokratik to'siqlarni kamaytiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim xizmatlari ko'rsatishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, elektron hujjat oboroti va onlayn xizmatlar tizimi joriy etilmoqda.

Kasbiy yo'naltirish tizimini rivojlantirish yoshlarning to'g'ri kasb tanlashida muhim rol o'ynaydi. Yangi kasbiy yo'naltirish modeli faqat targ'ibot faoliyati bilan cheklanmaydi, balki psixologik diagnostika, qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash, mehnat bozori tahlili, karyera rejalashtirish kabi keng qamrovli xizmatlarni o'z ichiga oladi. Kasbiy yo'naltirish markazlari zamonaviy diagnostik vositalar va malakali mutaxassislar bilan ta'minlanmoqda. Ushbu tizim orqali har bir yosh o'z imkoniyatlari va qiziqishlariga mos kasbni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'lim mazmunini yangilash jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosiy tamoyil sifatida qabul qilingan. Bu yondashuv ta'limning maqsadini "bilim berish"dan "kasbiy faoliyatga tayyorlash"ga o'zgartiradi. Yangi o'quv rejalari va dasturlari mehnat funksiyalari tahlili asosida ishlab chiqilmoqda va ularda nazariy bilim amaliy ko'nikmalar bilan uzviy bog'lanadi. Kompetensiyalar umumkasbiy va maxsus kasbiy guruhlarga ajratilgan holda aniq belgilanadi va har bir kompetensiyaning shakllanish darajasini baholash mezonlari ishlab chiqiladi.

Dual ta'lim tizimini joriy etish amaliy tayyorgarlik sifatini tubdan oshirmoqda. Bu tizimda o'quvchilar vaqtining ma'lum qismini ishlab chiqarish muhitida o'tkazadilar va real ish jarayonlarida ishtirok etadilar. Korxonalar bilan tuzilgan hamkorlik shartnomalari o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, zamonaviy texnologiyalar bilan tanishish va ish madaniyatini o'zlashtirish imkoniyatlarini beradi. Dual ta'lim dasturlari ish beruvchilarning bevosita ishtiroki bilan ishlab chiqiladi va muntazam yangilanib turadi.

Raqamlashtirish jarayoni ta'limning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar va interaktiv o'quv

